

## ZID MA'NOLI SO'ZLARLARDAGI USLUBIY IMKONIYATLAR

**Xulkar Raxmatova,**

JDPU, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

O'zbek tilini o'qitish metodikasi

kafedrasida o'qituvchisi,

E-mail: [hulkarrahatova1990@yandex.ru](mailto:hulkarrahatova1990@yandex.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tilshunosligida zid ma'noli so'zlarning lisoniy va nutqiy voqealanishi hamda ularning stilistik xususiyatlari ilmiy asoslanadi. Turli olimlar tomonidan tilshunoslik doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar masalasi, ularning uslubiy imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** leksik antonimlar, frazeologik antonimlar, frazeologik-leksik antonimiya, affeksal antonimiya, kontekstual antonimiya.

**Abstract:** In the article, the linguistic and speech occurrence of words with opposite meanings in Uzbek linguistics and their stylistic features are scientifically based. The issue of scientific research carried out by various scientists within the framework of linguistics, their methodological possibilities were highlighted.

**Key words:** lexical antonyms, phraseological antonyms, phraseological-lexical antonymy, affexal antonymy, contextual antonymy.

**Аннотация:** В статье научно обосновано лингворечевое появление слов с противоположным значением в узбекском языкознании и их стилистические особенности. Освещены вопросы научных исследований, проводимых различными учеными в рамках лингвистики, их методологические возможности.

**Ключевые слова:** лексические антонимы, фразеологические антонимы, фразеолого-лексическая антонимия, аффекальная антонимия, контекстуальная антонимия.

So'zlararo zid ma'nolilik munosbatlari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblangan. Xususan, leksik-semantik aspektda bajarilgan tadqiqot natijalaridan nazariy va amaliy leksikografiya sohasida keng foydalanish zarurati ortib bormoqda. Zid ma'nolilik munosabati har doim lug'atshunoslikning e'tibor markazida bo'lib kelgan. Zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati tuzish va ularni til ko'rpuslarida o'rganish masalalari bugungi dolzarb vazifalardan.

Jahon tilshunosligida tildan amaliy foydalanish ko'nikmalarini oshirish, tilni tasvirlash bilan birga uni tez va oson o'qitish maqsadini birlashtirgan lingvodidaktik vositalar tadqiqiga e'tibor kuchaymoqda. O'tgan asrning boshlariga kelib ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda nafaqat til o'rganish, balki yuksak salohiyatga ega, ma'naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi deb o'quv lug'atlari tan olindi. Shuning uchun ham mana shunday globallashtirish sharoitida milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi bo'lgan tilning mavqei saqlab qolish, axborot-kommunikatsiya, internet tiliga aylanish darajasini oshirishda ta'limning turli bo'g'inlari uchun o'quv lug'atlari

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

yaratish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbek tilshunosligida zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug‘ati tuzish masalasida yuksak e’tirofqa loyiq ishlar qo‘lga kiritilgan. Biroq tilning ijtimoiy hodisa ekanligini hisobga olinsa, lug‘atlar yaratish ularni takomillashtirish, lug‘at bazasini boyitib borish hamisha dolzarbligicha qolaveradi. Zotan, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni kelajakka e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga sadoqat ehtirom deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Jahon tilshunosligida leksikologiya va leksikografiya sohasi bo‘yicha bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda. XX asrda leksikografiya sohasi yuzasidan tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va tarixiy-etimologik xarakterdagi lug‘atlar ko‘plab yaratildi. Leksikografiya bo‘yicha umumiy filologik hamda sohaviy lug‘atlarning ahamiyati, ularni tuzish, leksikologik birlik antonim leksemalar, shuningdek, ularni maxsus filologik yoki o‘quv lug‘atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan.

Jumladan, antonimiya hodisasi o‘zining turli-tumanligi bilan uslubiy imkoniyatlarining cheksizligi bilan ajralib turadi. Antonimik juft hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama qarshi bo‘lishi kerak. Fe’llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba’zan juft holda qo‘llanib ma’no kengaytiradi yoki ma’no ifodalaydi: tunu kun (har doim). Ko‘p ma’noli so‘z o‘zining har bir ma’nosi bilan ayrim-ayrim so‘zlarga sinonim bo‘lishi mumkin: xafa so‘zi bir o‘rinda xursand so‘ziga antonim bo‘ladi. Yoki qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam.

Bundan tashqari unga sinonim bo‘lgan shod, xushvaqt kabi so‘zlarga antonim bo‘la oladi. Demak, bir so‘z sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlarning har biri go‘zal – xushro‘y – ko‘hlik; xunuk – badbashara – badburush – ta’viya. Antonimik juftlar ko‘chma ma’no ifodalashi mumkin: tunu kun (ravishga ko‘chgan), achchiq bilan atnonim bo‘la oladi: qattiq – yumshoq, saxiy; tez – sekin, og‘ir; chiroyli – Antonim badiiy nutqda qo‘llanib tazod yaratish uchun xizmat qiladi: Yaxshining ehsoniga yomonning boshi og‘rir. Antonimlarni kel – kelma, bor – borma kabi. Antonimlar birliklardan farqlamoq kerak, bu birliklar fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklidir. Faqat bir xil so‘z turkumlari doirasida kuzatiladi.

Antonimlar nutqda katta ahamiyatga ega. Ular predmet va hodisalar orasidagi farqni to‘g‘ri ifodalay olish imkonini beradi. Antonimlarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik qo‘pol xatoga olib keladi. Masalan, quyidagi misolni kuzating: ...choyxona mudiri Yusufjon Nozimov ko‘rinishdan turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o‘xshaydi (*Gazetadan*). Antonimlar tilning kuchli stilistik vositalaridan biridir”. “Antonimiya hodisasi, asosan, bir so‘z turkumi leksemalari doirasida yuz

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

beradi. Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va fe’llarda biroz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bo‘lmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno).<sup>1</sup> Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu orqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta’minlaydi.

*Tinglar edim betinim*

*Uzun tunlar yotib jim.*

*Seza olardim kuchin,*

*Ko‘pi yolg‘on, ko‘pi chin. (Hamid Olimjon)*

“Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi – hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta’sirchan ifodalash imkonini yaratadi”.<sup>2</sup>

**Yaxshiga yondash, yomondan qoch.**

**Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma.**

**Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib.**

Antonimlik hodisasi frazemalar va grammatik kategoriyalar doirasida ham yuzaga keladi. Antonimlarni ham nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish yoki qo‘llay olmaslik gapning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi.

“Ideografik semalaridan odatda biri zid, qolganlari aynan ikki frazema (frazosemema) biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi. Bunday ma’no munosabati oppozitiv munosabat deb ham nomlanadi: oq ko‘ngil – ko‘ngil(i) oq va ich(i) qora frazemalari o‘zaro, ochiq qo‘l – qo‘li ochiq kabi. Antonimik munosabat frazema bilan leksema orasida ham mavjud bo‘lib, frazeologik – leksik antonimiya deyiladi: bosh(i) osmonda frazemasini bilan xafa leksemasi o‘zaro, qo‘l(i) ochiq frazemasini bilan xasis leksemasi o‘zaro kabi. Frazeologik antonimiyani belgilashda ham ko‘p ma’nolilik bilan hisoblash zarur. Bir ma’noli frazemalardagina antonimiya frazema bilan frazema orasida voqe bo‘ladi: yerga ur – ko‘kka ko‘tar kabi. Ko‘pma’noli frazemalarda esa har bir frazosememaning o‘z antonimi bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘z(i)ga issig‘ ko‘rin– frazemasini ikki lug‘aviy ma’noni anglatadi: 1) “tanishdek tuyil”, 2) “o‘ziga tort” – “yoqimli bo‘l”. Bu ma’nolarning birinchisiga frazeologik antonim yo‘q, ikkinchisiga esa ko‘z(i)ga sovuq ko‘rin – frazemasini antonim: *Kelganiga sal o‘tmay hammaning ko‘ziga issiq ko‘rinib qoldi. (Said Nazar). - Qori bolalarning ko‘ziga sovuq ko‘rinib qolgan edi (Parda Tursun)*”.<sup>3</sup>

1 Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik - T.: Talqin, 2005. – B 171.

2 Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik - T.: “Talqin”, 2005. B—175-176.

3 Rahmatullayev Sh /Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik)/Toshkent. "Universitet" —2006. B—440-441.

Qarama-qarshi ma’no anglatuvchi affikslar affiksial antonimiyani keltirib chiqaradi. Tilimizda affiksial antonimiya, asosan, so‘z yasovchi affikslar doirasida uchraydi: -li, -siz: aqlli-aqlsiz; -li -be: sabrli - besabr; - be -ba: bedavlat - badavlat. Keltirilgan affiksial juftliklar har doim ham, barcha holatlarda antonim bo‘lib kelavermaydi. Masalan, boshli - bebosh deb ishlatmaymiz. “-siz affiksi ko‘rib o‘tilgan ma’nolarda -li affiksining antonimidir. Qiyoslang: mevali – mevasiz, imzoli - imzosiz, nurli - nursiz, kuchli - kuchsiz, yoqimli - yoqimsiz, odobli - odobsiz. Lekin bu ikki affiks hamma vaqt bir-birining antonimi sifatida qo‘llanavermaydi. Ayrim leksemalardan -li affiksi yordamida sifat yasalgani holda ulardan -siz affiksi yordamida sifat yasalmaydi va aksincha. Masalan, ayanchli, dahshatli, ziyoli, nafratli so‘zlarining ayanchsiz, dahshatsiz, ziyosiz, nafratsiz kabi antonimi, so‘ngsiz, ilojsiz, so‘zsiz, yuzsiz so‘zlarining sinfli, iloji, so‘zli, yuzli kabi antonimi yo‘q”.<sup>4</sup>

Ko‘rinib turganidek umumiy fonda antonim bo‘lgan ba’zi birliklar kontekstda yoki so‘zlar bilan o‘zaro birikkanida antonimlik hosil qilmaydi. Agarda ularni antonim sifatida qo‘llasak, qo‘pol uslubiy xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Masalan, “og‘ir judolik” birikmasidagi “og‘ir” so‘ziga nisbatan “yengil” so‘zini antonim sifatida qo‘llay olmaymiz. Lekin bu ikkala so‘z asosiy fonda o‘zaro antonimlikni hosil qila oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik - T.: Talqin, 2005. – B171.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Talqin, 2005. – B. 175-176
3. Rahmatullayev Sh /Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). – T.: Universitet, 2006. – B. 440-441.
4. Hojiyev A. /O‘zbek tili so‘z yasalishi / Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1989. B – 64.

<sup>4</sup> Hojiyev A. /O‘zbek tili so‘z yasalishi/ Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun qo‘llanma. – Toshkent, O‘qituvchi. – 1989. B – 64.